

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	62
Olikulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedrasi dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumutlibovich , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmuddin qizi , assisntent	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinovna , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна , PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganov , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdag'i yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 Berdiev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi253 Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari258 Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish263 G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish269 Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari284 Qurbanova Shaxrinoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar288 Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari292 Mamirjon Jalollidinov , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала297 Муминов Шохжакон Суюнович , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана302 Муяддинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 Тажимуратов Умид Рузматович , Бахриев Иброхим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойберганович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузмат Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili333 Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 Tosheva Ziroat Aliqul qizi	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uзbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
Tursun Muxitovich Ahmedov , i. ф. д., prof.; Gavhar Rustamovna Xidirova , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike	359
Urinov Bobur Nasilloevich , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilagini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullu Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	



TA'LIM TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTONDAGI TENDENSIYALARI

Maxmudova Nodira O'ktamovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lism turizmining nazariy mohiyati va uning O'zbekiston turizmidagi o'rni o'rganilgan. Muallif ta'lism turizmi tushunchasiga turli mualliflar fikrini tahlil qilgan holda, o'zining farqli yondashuvini ta'lism turizmi ta'rifida aks ettirgan. Shuningdek, O'zbekiston turizm sohasida ta'lism turizmi ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi tahlil qilinib, joriy tendensiylar bo'yicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: turizm, ta'lism turizmi, ta'lism turizmi evolyutsiyasi, O'zbekistonda turizm, turizmnинг rivojlanish tendensiylari.

Abstract: This article examines the theoretical essence of educational tourism and its place in the tourism of Uzbekistan. The author analyzed the opinions of different authors on the concept of educational tourism and presents her approach to the concept of educational tourism. The dynamics of changes in indicators of educational tourism in the tourism sector of Uzbekistan are also analyzed, and the main trends are identified.

Key words: tourism, educational tourism, evolution of educational, tourism in Uzbekistan, trends in tourism development.

Аннотация: В данной статье изучена теоретическая сущность образовательного туризма и его место в туризме Узбекистана. Автор проанализировал мнение разных авторов о понятии образовательного туризма и приводит свой подход к понятию образовательного туризма. Также проанализирована динамика изменения показателей образовательного туризма в сфере туризма Узбекистана, определены основные тенденции.

Ключевые слова: туризм, образовательный туризм, эволюция образовательного туризма, туризм в Узбекистане, тенденции развития туризма.

KIRISH

Turizm bugungi kunda xaridorlar uchun turli yo'naliшlar va tur mahsulot taklifi mavjud bo'lgan, o'sish tendensiyasiga ega global sanoatdir. Turistik oqimlardan iqtisodiy o'sish katalizatori sifatida foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, turizm mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim variantlaridan biri hisoblanadi. Sayohatlar iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch bo'lishi qatorida sayohatchilarining dunyoqarashni kengaytiradi, insoniy qadriyatlar, shaxsiy tajriba, hissiyotlarni rivojlantirishga ham undaydi. Turizmnинг ushbu ikki jihatini sodda texnologiyalar asosida birlashtiruvchi shakli ta'lism turizmidir.

XXI asrda xalqaro ta'lism turizmining jadal rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining hozirgi darajasi va xususiyatlari bilan bog'liq. Hayotning tez sur'atlari, vaqt tanqisligi va moliyaviy imkoniyatlarning xilma-xilligi sharoiti, shuningdek, faol sog'lom turmush tarzi bo'sh vaqtga muqobil yo'naliш sifatida ta'lism turizmining ahamiyatini belgilab berdi.

Ta'lism turizmi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tarixiy jihatlariga ko'ra, taraqqiyotning turli bosqichlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Ushbu maqolada ta'lism turizmining nazariy asoslarini ko'rib chiqish qatorida, statistik ma'lumotlar tahlili natijasida ta'lism turizmining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri bo'yicha xulosalar keltirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Yevropada ta'lism maqsadlarida xalqaro sayohatlar an'anasi 9-asrda universitetlar sonining ko'payib borishi natijasida shakllangan. 12-asrdan boshlab, akademik va talabalar almashinuvি rivojlanish tendensiyasiga ega bo'la boshadi¹. Buyuk mutafakkirlar (J. Lok, J. J. Russo va boshqalar) g'oyalari ta'sirida 17-asr oxiri va 18-asrning

¹ Maxmudova Nodira O'ktamovna. Ta'lism turizmining mohiyati, nazariy va konseptual asoslari// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 3/2022, may-iyun (№ 00059). – 414–421-betlar.



birinchi yarmida Yevropaning bir qancha ta'lim muassasalari o'z o'quvchilari uchun ilmiy ekskursiya va ekspeditsiyalarni tashkillashtirishni yo'lga qo'ydilar². 19-asrning o'talaridan Yevropa va Amerikada yangi shakldagi oliy o'quv yurtlarining tashkil etilishi va ularning ixtisoslashuvi, talabalarning xalqaro harakati dinamikasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Taxminan shu davrlarda Rossiyaning yetakchi pedagoglari ta'lim turizmining targ'ibotchilari va tashkilotchilari sifatida namoyon bo'lishdi.

Turistik sayohatni maxsus ta'lim dasturlari, dam olish, ishslash va sevimli mashg'ulot bilan shug'ullanish bilan uyg'unlashtirish bugungi kunda vaqtidan oqilona foydalanish imkoniyati hamda va foydalilik o'rtaсидagi ratsional muvozanat sifatida qabul qilinadi. Dunyo bo'y lab sayohatchilarning 70% ga yaqini aynan shunday "foydale dam olish" ni tanlaydi³.

Turizm va ta'limga oid zamonaviy lug'atlar va o'zbek tilining izohli lug'atlarining tahlili "ta'lim turizmi" tushunchaning alohida talqini mavjud emasligini ko'rsatadi.

Qator xorijiy adabiyotlarda ta'lim turizmi tushunchasining mohiyati bilim olish va o'rganish maqsadi mavjud bo'lgan ekskursant va tunab qoladigan mehmonlarning faoliyatida aks etadi deb yoritilgan. Bunda madaniy, ekologik va kattalar uchun ta'lim turizmi dasturlari nazarda tutilgan⁴. Aslida, bilim olish sayohatning asosiy maqsadidan iborat bo'lgan shunday segment mavjuddir. Bir qator xorijiy mualliflar fikricha, ushbu segmentga universitetda, til o'rgatuvchi maktablarda tahsil olish va maktablardagi turli ekskursiyalar kiradi. Boshqa segmentlardga esa turizm birlamchi hisoblanib, ta'lim olish, yangi bilimlarni o'zlashtirish ikkinchi darajali maqsad sifatida qaraladi.

"Ta'lim turizmi" atamasi "madaniy turizm", "ta'lim turizm", "madaniy va ekskursion-kognitiv turizm" kabi turizm turlaridan kelib chiqqan⁵. Ayrim adabiyotlarda, ta'lim turizmi muhim iqtisodiy kategoriya sifatida qaralgan ilmiy ishlarda ta'lim turizmi tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar "bir tomonlama yondashuvga ega, ya'ni turistik xizmatni alohida ishlab chiqarish bosqichlari aks ettirilmagan" deb tanqid qilingan. Olimlar fikricha, ta'lim turizmi xizmatlari ishlab chiqarish, taqsimot, ayrboshlash va iste'mol bosqichlaridan iborat iqtisodiy munosabatlarni milliy hamda xalqaro ko'lama o'z ichiga oladi⁶. Bu ta'lim turizmi kontsepsiyasini belgilashga iqtisodiy yondashuv deb ataladi.

Fikrimizcha, ushbu ta'riflarda ta'lim turizmining barcha xususiyatlari tilga olinmagan, chunki sayohatlarning asosiy maqsadi har doim turizm turini belgilab bergan. Ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi subyekt ishonchli va tegishli ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassis yoki manba bo'lishi darkor.

Xorijiy va mahalliy mualliflarning yuqorida barcha ta'riflarini tahlil qilgan holda "ta'lim turizmi" tushunchasiga biz quyidagicha ta'rif beramiz:

"Ta'lim turizmi ilm-fan, tarix, madaniyat, sport va boshqa sohalarda ma'lumot, bilim, mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lish maqsadida bir yilgacha bo'lgan muddatda mamlakat hududida yoki tashqarisida haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmaslik sharti bilan amalga oshiriladigan turizm shakli bo'lib, unda obyekt bo'yicha ma'lumot mutaxassis yoki raqamli texnologiyalar vositasida taqdim etiladi".

Keltirilgan ushbu ta'rifning bosqa ta'riflardan asosy farqi ta'lim turizmiga xos bo'lgan xususiyatlar kengroq ko'lama qamrab olinganligi hamda bugungi tendensiyalardan kelib chiqqan holda xizmatni taqdim etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ham nazarda tutishi bilan ajralib turadi. Bu yerda ma'lumotning raqamli texnologiyalar vositasida taqdim etilishi onlayn platformalar, virtual reallik moslamalari, 3D tasvirlar, QR-kodli ma'lumotlar kabi zamonaviy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida turizm sohasi maxsus drayver sifatida qabul qilinib, ta'lim turizmining mamlakat iqtodiyotiga ta'siri bir qator statistik ko'rsatkichlar tahlili asosida baholanadi.


Ma'lumki, turizm sohasining rivojlanishi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini belgilovchi daromadlar, bandlik hamda valyuta tushumlari kabi bandlarga bevosita ta'sirga ega. Turizm turli soha xizmatlarining integratsiyasi natijasi bo'lib, uni rejalashtirish, tahlil qilish hamda iste'moli murakkab sanaladi. Turistik xizmatlarni alohida "sektor" sifatida baholash tashrif buyuruvchilar uchun taqdim etiladigan barcha tovar va xizmatlar to'plamida namoyon bo'ladi.

- 2 Dembovska I., Silicka I., Lubkina V. Educational Tourism in the Training of Future Tourism Professionals. // Society. Integration. Education – Proceedings of the International Scientific Conference. Volume IV, May 27th –28th, 2016. – P. 245–255. Rēzeknes Tehnoloģiju akadēmija, 2016.
- 3 Salomon M., Sokolowski S., Haddock M. Measuring the economic value of volunteer work globally: concepts, Estimates and a roadmap to the future // Annals of Public and Cooperative Economics. – 2011. – 82(3). – P. 217–252.
- 4 Dembovska I., Silicka I., Lubkina V. Educational Tourism in the Training of Future Tourism Professionals. // Society. Integration. Education – Proceedings of the International Scientific Conference. Volume IV, May 27th –28th, 2016. – P. 245–255. Rēzeknes Tehnoloģiju akadēmija, 2016.
- 5 Maxmudova Nodira O'ktamovna. Ta'lim turizmining mohiyati, nazariy va konseptual asoslari// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) elektron jurnali, 3/2022, may-iyun (№ 00059). – 415–416-betlar.
- 6 Дойл П. Маркетинг-менеджмент и стратегия / пер. с англ. С. Жилцов. – 3-е изд. – СПб: Питер, 2002. – 538 с.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda 2022-yilda turistik xizmatlar eksporti 1,6 mldr. AQSh dollarini tashkil etib, 2020–2021-yillarda ko'rsatkichlari bilan solishtirganda keskin o'suvchi xarakterga ega (1-chizma).




1-chizma: O'zbekistonda xorijiy sayyoohlar soni hamda turistik xizmatlar eksportining 2020–2023-yillarda o'zgarish dinamikasi⁷

Covid–19 pandemiyasidan so'ng jahon bozori konyukturasi beqarorligi, davlatlar iqtisodiyotidagi muammolar, xalqaro logistika xizmatlaridagi uzilish kabi holatlar global iqtisodiyotni faoliyatida salbiy ega bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga nazar tashlasak, 2022-yilda yalpi ichki mahsulot (YalIM) 2021-yilga nisbatan 5,7 %ga oshgan, inflyatsiya ko'rsatkichi 2022-yilda 12,3 % bo'lib, 2021-yilga nisbatan 2,3 % ko'pdir.

Yil yakunlaridan xulosa qilish mumkinki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ijobji ko'rsatkichlar qayd etildi, ammo global iqtisodiyotdagi salbiy o'zgarishlar(Covid–19 pandemiyasi, siyosiy nizolar...) o'sish sur'atlarini sekinlatib, inflyatsiya darajasini nisbatan oshirdi.

2022-yilda O'zbekistonga 5,2 mln. xorijiy sayyooh tashrif buyurib, oldingi yilda nisbatan (2021-yilda 1,8 mln) deyarli 3 marta oshganini kuzatish mumkin (2-chizma). Turizm xizmatlari eksporti 2022-yilda 1,6 mldr. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilda 422,1mln AQSh dollari ko'rsatkichidan qariyb to'rt karra o'sishni qayd etdi. "O'zbekiston Respublikasida turizmnı jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'ridasida"gi Prezident farmonida⁸ turizm xizmatlari eksportini 2025-yilda 2,170 mldr. AQSh dollariga yetkazish vazifasi belgilangan.



2-chizma: O'zbekistonda xorijiy sayyoohlar soni va turistik xizmatlar eksporti ko'rsatkichlari⁹


7 O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019-yildagi PF–5611-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/4143188>.

9 O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



2022-yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim turizmi maqsadida chet elga chiqqan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 143,6 ming kishi bo'lib, muayyan safar maqsadlari bilan ketgan turistlarning umumiy sonidagi ulushi 2,8 % ni tashkil etdi hamda 2021-yilga nisbatan -24% ga o'zgarish kuzatildi (3-chizma).



3-chizma: O'zbekistonda chiqish va kirish ta'limga turizmning yosh bo'yicha klassifikatsiyasi, ming kishi¹⁰

Mazkur chizmada chiquvchi ta'limga turizmida O'zbekiston 19–30 yosh oralig'idagi yoshlari xalqaro ta'limga turizmini amalga oshiruvchi asosiy segment ekanligi va hissasi deyarli 75 %ga yetganini kuzatish mumkin. Ular asosan talabalar, mustaqil til o'rganuvchilar, ilmiy ta'tillar asosida o'quv dasturlarini o'tuvchilar hisoblanadi. Keyingi o'rinda 18 yoshgacha bo'lganlar ulushi 14,3 %ni tashkil etgan. Ular, asosan, muktab o'quvchilarini va bitiruvchilar hisoblanib, turli xalqaro olimpiada, tanlovlardan, konferensiya ishtirokchilari, til o'rganuvchilar hamda turli o'quv kurslarini o'z ichiga olgan xalqaro oromgohlar qatnashchisi hisoblanadi.

O'zbekistonga ta'limga turizmi maqsadida tashrif buyuruvchilar chiquvchilarga nisbatan bir necha marta kamligini kuzatish mumkin. Kiruvchi turistlarning aksariyati 19–30 yoshdagi talabalar bo'lib, ular asosan MDH davlatlaridan kelishgan.

2022-yil davomida o'qish maqsadida asosan Qirg'iz Respublikasi 52,8 ming kishi, Tojikistonga 49,9 ming kishi va Rossiyaga 13,7 ming kishi chiqqan.

O'zbekistonga ta'limga turizmini amalga oshiriladigan sayyoohlarning asosiy maqsadlari:

- ish beruvchi yo biror tashkilot tomonidan qisqa muddatli kurslarga qatnash;
- oliy ta'limga muassasalarida tahsil olish;
- tillarni o'rganish;
- kasbiy yo farqli maxsus kurslarda o'qish, muayyan malakaga ega bo'lish kabilalar sanaladi.

O'zbekistonga kirish ta'limga turizmida asosiy uzatuvchi davlatlar qatorida Hindiston, Pokiston va Tojikiston o'rin olgan¹¹. O'zbekistonga Hindiston (3,8 ming) va Pokiston (1,2 ming) davlatlaridan asosan bilim olish maqsadida, jumladan, tibbiyot oliyogolarida tahsil olish maqsadida talabalar kelishmoqda. Ularning hissasi, ayniqsa, 2022–2023-o'quv yili davomida sezilarli bo'ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan O'zbekistonda ta'limga turizmi joriy holatida quyidagi tendensiyalarni kuzatish mumkin:

O'zbekistonda turistik xizmatlar eksporti oxirgi yillarda dinamik o'suvchi xarakterga ega bo'lib, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan qariyb to'rt karra oshgani e'tiborga molik.

Ta'limga turizmi maqsadida O'zbekistonga tashrif buyuruvchilar orasida asosan MDH davlatlari, jumladan, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Rossiya davlatlari yetakchilik qiladi.

Yuqorida qayd qilingan ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizligi xizmati Chegara qo'shining mamlakatimizga tashrif buyurgan chet el fuqarolari to'g'risidagi ma'lumotlari asosida, asosan ta'limga xizmatlarining eksporti va importiga asoslangan bo'lib, ichki ta'limga turizmi ko'rsatkichlari aks etmagan. Keyingi yillarda ta'limga turizmida keskin o'zgarishlar bo'lib, turli yo'naliishlarda xususiy hamda xalqaro ta'limga muassasalarini faoliyati shakllantirilmoqda va kengaymoqda. Shuningdek, ayrim davlatlarning siyosiy beqarorlik hamda pandemiya ta'siri O'zbekiston ta'limga turizmida ham iste'mol talabining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

10 O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shining O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan chet el fuqarolari to'g'risidagi ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

11 Stat. uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



Mamlakatimizda ta'lim xizmatlari importi eksport ko'satkichidan bir necha marta yuqori, bu esa ushbu qabul qiluvchi ta'lim turizmi infrastrukturasi rivojlantirish, diversifikatsiya qilish zarurligidan dalolat beradi.

Ta'lim turizmini O'zbekiston hududida ommalashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri – onlayn ta'lim rolini oshirishdir. Zamonaviy texnologiyalar masofadan ta'lim olish, shuningdek, O'zbekiston tarixi, madaniyati va o'zbek tilini o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bu esa O'zbekistonga kelish uchun reklama, motivatsiya bo'lib xizmat qiladi.

Yana bir zaruriyat O'zbekiston ta'lim turizmi bozorida yuqori malakali gid va tarjimonlar yetarli emaslidir. Bu esa xorijiy turistlarga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini asoslangan turpaketlar ishlab chiqish va taklifi borasida kamchiliklarga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston ta'lim muassasalarining ta'lim turizmi imkoniyatlari va afzallikkleri haqida yetarlicha axborotga ega emasligi asosiy muammo sanaladi. Ko'pgina maktab va oliy ta'lim dargohlari ushbu turizm turi potensialini to'la anglamagani uchun talabalarga mos ta'lim dasturlarini taklif eta olmaydilar, bu esa, o'z navbatida, sifatli ta'lim turizmi turlarini tashkil etishni murakkablashtiradi.

Yana bir muammo ta'lim turizmi dasturlarining yetarlicha moliyalashtirilmaganligidadir. Sifatli ta'lim turizmi dasturlarini tayyorlash va tashkil etish mahalliy darajada ham juda katta mablag' talab etadi.

Yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklar bo'lishiga qaramasdan, O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirish salohiyati yuqori. Yangi ta'lim dasturlari ishlab chiqish, turistik yo'nalishlar assortimenti kengaytirishi, yashash va o'qish sharoiti yaxshilash hamda davlat ushbu turizm turini rivojlantirish turli grantlar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali ta'sir etishi mumkin.

Mamlakatimizda ta'lim turizmi taraqqiyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbolli ta'sirga ega. Bugungi kunda mamlakat diqqatga sazovor joylari bilan tanishish, sayohatini rejalashtirish uchun turli mobil ilovalar mavjud. Bunday ilovalardan ta'lim berish maqsadida, jumladan, virtual ekskursiya yoki o'quv darslarini tashkil etishda, turli ta'lim muassasalarida o'qituvchilar va talabalarning o'zaro bilim, malaka, tajriba almashinuvda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dembovska I., Silicka I., Lubkina V. Educational Tourism in the Training of Future Tourism Professionals. // Society. Integration. Education – Proceedings of the International Scientific Conference. Volume IV, May 27th –28th, 2016. – P. 245–255. Rēzeknes Tehnoloģiju akadēmija, 2016.
2. Дойл П. Маркетинг-менеджмент и стратегия / пер. с англ. С. Жилцов. – 3-е изд. – СПб: Питер, 2002. – 538 с.
3. Maxmudova N. O'. Ta'lim turizmining mohiyati, nazariy va konseptual asoslari/ / "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 3/2022, may-iyun (№ 00059). – 415–416-betlar.
4. Salomon M., Sokolowski S., Haddock M. Measuring the economic value of volunteer work globally: concepts, Estimates and a roadmap to the future // Annals of Public and Cooperative Economics. – 2011. – 82(3). – P. 217–252.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019-yildagi PF-5611-son farmoni. www. lex. uz/docs/4143188.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sahifasi. www. stat.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy veb-sahifasi. www. uzbektourism.uz.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.